

2. Benyamina, N. (2024) 'Financial dualism between Islamic and conventional finance: complementarity and contribution to sustainable and inclusive financing', Review MECAS (Algerian Scientific Journal Platform), 20(2), December.

3. Umarov, S., Tlemsani, I., Hashim, M.A.M. and Matthews, R. (2024) "Implementing Islamic banking in Uzbekistan", Journal of Islamic Business and Management, 14(1), pp. 21–36.

4. International Finance Corporation (IFC) (2020) Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan: A Demand-side Assessment. June. Washington, DC: International Finance Corporation (World Bank Group), in partnership with the Swiss Confederation.

5. L.Klapper, D.Singer, L.Starita and A. Norris. Global Findex Database 2025. Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. World Bank Group. 20250

SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA UNING MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya" mutaxassisligi magistranti,

Soatova Nodira Boboxanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi dotsenti,

Annotatsiya. Ushbu tezisda moliya bozori barqarorligini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining institutsional investor sifatidagi roli o'rganilgan. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati va uning xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, institutsional investorlar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya portfeli, moliyaviy barqarorlik, kapital bozori.

Bugungi kunda sug'urta tizimini kompleks rivojlantirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda sug'urta bozorining institutsional asoslarini mustahkamlash, sug'urta kompaniyalari faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish hamda bozor mexanizmlarini samarali tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda²⁶⁹.

Sug'urta kompaniyalari institutsional investorlar sifatida sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiyaga yo'naltiradi.

²⁶⁹<https://www.neliti.com/publications/668467/sugurta-kompaniyalarining-investitsion-faoliyatini-innovatsion-asosda-rivojlanti>. Gadayev J., Axrorov Z. Sug'urta Kompaniyalarining Investitsion Faoliyatini Innovatsion Asosda Rivojlantirish //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 12. – C. 668467.

Barqaror pul oqimlari ularga uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritish imkonini beradi. Aktivlar asosan davlat qimmatli qog'ozlari, obligatsiyalar, aksiyalar va depozitlarga joylashtirilib, kompaniya barqarorligini hamda moliya bozori likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda sug'urta kompaniyalari o'z mablag'lari va sug'urta zaxiralarini o'zlarining investitsiya faoliyatining ajralmas qismi sifatida hisoblashadi hamda investitsiya sifatida foydalanishadi. Sug'urta fondi sug'urta to'lovlari uchun foydalanishdan oldin vaqtincha sug'urta majburiyatlaridan ozod hisoblanadi, ya'ni vaqtincha bo'sh pul mablag'lariga aylanadi²⁷⁰.

Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining asosiy xususiyati uning uzoq muddatli xarakterga ega ekanligidir. Ayniqsa, hayotni sug'urtalash kompaniyalari uzoq muddatli majburiyatlari sababli investitsiyalarni ham uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga yo'naltiradi, bu esa kapital bozorida barqaror talabni shakllantiradi.

Shuningdek, ular risk va daromadlilik o'rtasida muvozanatni saqlashi zarur. Majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish uchun investitsiya portfeli diversifikatsiyalanadi va asosan davlat qimmatli qog'ozlari, obligatsiyalar, aksiyalar hamda depozitlardan shakllantiriladi. Davlat qimmatli qog'ozlari xavfsiz aktiv sifatida ustuvor o'rin tutadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati 2023-2024-yillar kesimida ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etgan, biroq investitsiya portfeli tarkibida muhim strukturaviy o'zgarishlar kuzatilgan. 2023-yilda jami investitsiyalar hajmi 6 149 938 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 6 542 569 mln so'mga yetib, 6,4 foizga oshgan. Bu sug'urta sektorida investitsion resurslar bazasi kengayayotganini va kompaniyalar moliyaviy imkoniyatlari ortayotganini ko'rsatadi.

Investitsiya portfelinin asosiy qismini depozitlar (omonatlar) tashkil etadi. 2023-yilda depozitlar ulushi 65,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 70,1 foizga yetgan. Hajm jihatidan ular 13,5 foizga oshgan. Bu sug'urtalovchilarning investitsion siyosatida konservativ yondashuv ustunligini, ya'ni likvidlik va xavfsizlikni daromadlilikdan ustun qo'yish tendensiyasini anglatadi.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2023-yilda 1 357 492 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 1 303 756 mln so'mga kamaygan (-4,0%). Ularning portfeldagi ulushi ham 22,1 foizdan 19,9 foizga tushgan. Bu kapital bozori instrumentlariga nisbatan ehtiyotkorlik kuchayganini yoki bozor konyunkturasi o'zgarishlari ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Zaymlar (qarz shaklidagi investitsiyalar) hajmi 103,6 foizga oshib, 46 864 mln so'mdan 95 400 mln so'mga yetgan.

²⁷⁰<https://www.neliti.com/publications/664889/sugurta-kompaniyalarning-investitsion-faoliyatining-mamlakat-iqtisodiyotida-tutg>. Samijonov M. Sug'urta Kompaniyalarning Investitsion Faoliyatining Mamlakat Iqtisodiyotida Tutgan O'rni //Green Economy and Development. – T. 2. – №. 8. – C. 664889.

Sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati²⁷¹

mln. so'm

| Ko'rsatkich nomi | 2023-yil | | 2024-yil | | O'zgarish, % |
|--|------------------|----------------------|------------------|----------------------|--------------|
| | mln. so'mda | Jamiga nisbatan % da | mln. so'mda | Jamiga nisbatan % da | |
| Jami investitsiyalar, shu jumladan: | 6 149 938 | 100% | 6 542 569 | 100% | +6,4% |
| Depozitlar (omonatlar) | 4 037 369 | 65,6% | 4 583 762 | 70,1% | +13,5% |
| Qimmatli qog'ozlar | 1 357 492 | 22,1% | 1 303 756 | 19,9% | -4,0% |
| Zaymlar | 46 864 | 0,8% | 95 400 | 1,5% | +103,6% |
| Ko'chmas mulk | 539 498 | 8,8% | 452 745 | 6,9% | -16,1% |
| Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki | 134 728 | 2,2% | 98 480 | 1,5% | -26,9% |
| Boshqa investitsiyalar | 33 988 | 0,6% | 8 425 | 0,1% | -75,2% |

Biroq ularning umumiy portfeldagi ulushi nisbatan kichik (1,5%) bo'lib qolmoqda. Bu sug'urtalovchilarning kreditlash faoliyati kengayish bosqichida ekanini, ammo hali asosiy investitsiya yo'nalishiga aylanmaganini bildiradi. Ko'chmas mulkka investitsiyalar 16,1 foizga kamaygan va ulushi 8,8 foizdan 6,9 foizga tushgan. Bu uzoq muddatli va past likvidli aktivlardan qisqa muddatli hamda tezkor qaytariluvchi instrumentlarga o'tish jarayoni kuzatilayotganini anglatadi. Tashkilotlar ustav fondidagi ishtirok 26,9 foizga, boshqa investitsiyalar esa 75,2 foizga qisqargan. Bu sug'urtalovchilar portfelini soddalashtirish va asosiy, nazorat qilinadigan hamda likvid aktivlarga yo'naltirish siyosatini olib borayotganini ko'rsatadi²⁷².

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati hajm jihatidan kengaygan bo'lsa-da, portfel tarkibida konservativ transformatsiya yuz bergan. Depozitlar ulushining oshishi va nisbatan riskli aktivlar ulushining kamayishi sug'urta kompaniyalarining risklarni minimallashtirish va likvidlikni saqlashga yo'naltirilgan strategiyasini aks ettiradi. Mazkur tendensiya qisqa muddatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin, biroq uzoq muddatda kapital bozori rivojlanishiga va investitsion daromadlilik darajasiga ma'lum darajada cheklovlar keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, u qat'iy normativ-huquqiy talablar asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazorat organlari tomonidan aktivlarni joylashtirish tarkibi, likvidlik darajasi va risk

²⁷¹ <https://napp.uz/oz/news/statistics-and-analysis-for-im-2024>. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

²⁷² <https://napp.uz/oz/news/statistics-and-analysis-for-im-2024>. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

ko'rsatkichlariga nisbatan aniq cheklovlar belgilanadi. Bu talablar sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini saqlash hamda sug'urta qiluvchilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlash, daromadlilikni oshirish hamda moliya bozori barqarorligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. To'g'ri shakllantirilgan va diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli sug'urta kompaniyasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi hamda butun moliya tizimining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.neliti.com/publications/668467/sugurta-kompaniyalarining-investitsion-faoliyatini-innovatsion-asosda-rivojlanti>. Gadayev J., Axrorov Z. Sug'urta Kompaniyalarining Investitsion Faoliyatini Innovatsion Asosda Rivojlantirish //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 12. – C. 668467.

2. <https://www.neliti.com/publications/664889/sugurta-kompaniyalarning-investitsion-faoliyatining-mamlakat-iqtisodiyotida-tutg>. Samijonov M. Sug'urta Kompaniyalarning Investitsion Faoliyatining Mamlakat Iqtisodiyotida Tutgan O'rni //Green Economy and Development. – T. 2. – №. 8. – C. 664889.

3. <https://napp.uz/oz/news/statistics-and-analysis-for-im-2024>. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

MINTAQAVIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER SIYOSATLARINI RIVOJLANTIRISH

Turakulov Timur Axmadjonovich

TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

Globalashuv va hududlararo raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. An'anaviy yondashuvlarda mintaqaviy rivojlanish asosan investitsiya hajmi, infratuzilma kengayishi yoki soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirilgan bo'lsa, zamonaviy iqtisodiy amaliyot hududiy raqobatbardoshlikni klasterlashuv asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Klaster siyosati hudud ichida ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, moliyaviy institutlar va davlat organlari o'rtasidagi tizimli kooperatsiyani yo'lga qo'yish orqali sinergetik samarani yuzaga keltiradi.

Klaster yondashuvi mintaqaviy iqtisodiyotning ichki resurslarini safarbar etish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish, innovatsion faoliyatni